



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

AVLIYO CHALABIY SAYOHATNOMASIDA O'RTA OSIYO: O'LKALAR, SHAHARLAR VA AHOLI

Davronov Xolbek Zokir o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, assistent

Annotatsiya

Mazkur maqolada XVII asrda yashab ijod etgan mashhur Usmonli sayyohi Avliyo Chalabi va uning 10 jildlik "Sayohatnoma" asari tahlil qilingan. Asarda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'sha davrdagi O'rta Osiyo shaharlari, shuningdek, turli sabablar bilan Usmonli imperiyasi hududlariga ko'chib borgan O'rta Osiyo vakillari va ularning mamlakat hayotidagi o'rni masalasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Sulton Ahmadxon, Buxoro, o'zbek diyori, Muhammad Buxoriy, Turk-i Turkon, Turk-i Turkiston.

СРЕДНЯЯ АЗИЯ В ПУТЕШЕСТВЕННЫХ ЗАМЕТКАХ ЭВЛИЯ ЧЕЛЕБИ: СТРАНЫ, ГОРОДА И НАСЕЛЕНИЕ

Давронов Холбек Закир угли

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, ассистент

Аннотация

В данной статье анализируется труд известного османского путешественника Авлии Чалаби, жившего и работавшего в XVII веке, и его десяти томное сочинение «Саёхатнама». На основе представленной в произведении информации раскрывается вопрос о городах Центральной Азии того времени, а также о представителях Центральной Азии, мигрировавших на территории Османской империи по различным причинам, и их роли в жизни страны.

Ключевые слова: Султан Ахмад Хан, Бухара, Узбекская земля, Мухаммад Бухари, Тюрк-и Тюркон, Тюрк-и Туркестан.

CENTRAL ASIA IN THE TRAVEL NOTES OF EVLIYA CHELEBI: COUNTRIES, CITIES AND POPULATION

Davronov Xolbek Zokir o'g'li

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Assistant

Abstract

This article analyzes the famous Ottoman traveler Avliya Chalabi, who lived and worked in the 17th century, and his 10-volume work "Sayohatnoma". Based on the information presented in the work, the issue of the cities of Central Asia of that time, as well as the Central Asian representatives who migrated to the territories of the Ottoman Empire for various reasons and their role in the life of the country are revealed.

Keywords: Sultan Ahmad Khan, Bukhara, Uzbek land, Muhammad Bukhari, Turk-i Turkon, Turk-i Turkistan.

O'zining olti yuz yildan ortiqroq bir tarixiga ega Usmoniylar saltanati (1299-1923) jamiyatida o'ziga xos dunyoqarash, tarixnavislik, dunyo tarixi va geografiyasiga yondashuv usullari shakllandi. Bu kabi masalalarda bir tomondan O'rta Osiyo, ayniqsa, turkiy an'analar, ikkinchi tomondan esa musulmon (asosan arab va fors) hamda G'arb (xristian) an'alaridan

xabardor bo'lgan usmonli turk jamiyati asrlar davomida Sharq va G'arb an'analari umumlashtirildi. Ma'furaviy jihatdan ko'proq musulmon an'alariga asoslangan usmonli ziyolilari o'zlari uchun o'zak hudud bo'lgan Kichik Osiyo (Onado'li, Rum-eli) va unga qo'shni hududlarda o'zidan oldingi Onado'li Saljuqiylari, Onado'li bekliklari davriga xos a'nanalar bilan birga qadimda mavjud bo'lgan bir qator mahalliy sulolalarning an'analari ham o'zlashtirildi.

Usmoniylar saltanati uzoq yillar davomida qo'lga kiritgan Old Osiyo o'lkalari (Suriya, Iroq, Iordaniya, Falastin, Arabiston yarim oroli mamlakatlari, Yaman)dan tashqari yana Misr, Liviya, Tunis, Jazoir, Bolqon yarim oroli, Qora dengiz bo'ylari, G'arbiy Kavkaz va hokazolarda o'ziga xos tarixnavislik yaratish bilan birga, ushbu saltanatga qo'shni yoki birmuncha uzoqda joylashgan o'lkalar uchun ham muayyan bir terminologiya ishlab chiqar ekan, bu borada o'zidan oldingi sulolalarga xos an'alarga ham tayandi. Bu holat ayniqsa Usmoniylarga shimoli-sharqdan qo'shni yerlarga, shuningdek, usmonli turklarning kelib chiqqan tarixiy yerlari bilan bog'liq o'lkalar – O'rta Osiyo va unga tutash hududlarga nisbatan usmonli mualliflari ishlatgan atamalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni Usmoniylar saroyi bilan u yoki bu darajada bog'liq mualliflar – tarixnavislar, sayyohlar va elchilar tomonidan qo'llanilgan joy nomlari va etnonimlar tasdiqlaydi.

O'zining yuksak istedodi sababli sulton Murod IV ning nazariga tushgan [1] Onado'lilik mashhur sayyoh, Istanbulda tug'ilib, 40 yildan ortiq davom etgan sayohatlari davomida Yevropa, G'arbiy Osiyo va Misrni kezib, Qohirada vafot etgan Avliyo Chalabiy (1611-1682) turk sayyohlari orasida alohida ajralib turadi. "Chalabiy" so'zining turkchadan "Xushmuomala, oliyjanob" kabi ma'nolarni anglatadi [2]. tomonidan O'rta Osiyo haqida keltirilgan quyidagi ma'lumotlarga ko'z yugurtiradigan bo'lsak, Usmoniylar saltanatida musulmon dunyosi, umuman olganda, Sharq o'lkalari asosan shu tarzda nomlangani anglashiladi: "Haqiqatdan ham Fransiyaning Usmoniylarga yaqinligi Fotih (Sulton Mehmet)ning xotuni sababidandirki, usmoniylar devonida barcha elchilar to'plangach, Hind, Sind, Habash, Yaman, Iroq, O'zbek, Dog'iston, Tatarxon, Fas va Marokash podshohlarining elchilari uning yonida o'tiradilar, zero ular Islom podshohlaridir"[3].

Bundan ko'rinadiki, XVII asrda Usmoniylari muhitida Osiyoning janubi-sharqi – Hind, Sind, Yaman deb yuritilgan bo'lsa, ushbu saltanatning shimoli-sharqidagi o'lkalar Dog'iston, Tatar, O'zbek o'lkalari deb atalgan, shuningdek, Dashti Qipchoq va u yerning egalari sifatida tatarlar va no'g'oylar tilga olingani Avliyo Chalabiyning boshqa qaydlari ko'rsatib o'tilgan [4]. Bilamizki, bu davrda O'rta Osiyoning sezilarli bir qismida – Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash Shimoliy Afg'oniston, Turkiston (Yassi) shaharlari atrofidagi hududlarda Ashtarxoniylar (1601-1753) davlati hukm surgan bo'lib, qo'shni hududlarda bo'lgani kabi uzoq o'lkalarda ham o'zbek sulolasi sifatida bilinar edi. Usmoniylar davlati bilan yaqin diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygan ushbu sulola Istanbul jamiyati tomonidan o'zbeklar xonadoni deb atalgani uchun ham Avliyo Chalabiy Tatarxon, ya'ni Dashti Qipchoqdagi o'lkaning qo'shnisi bo'lgan joylarni O'zbek nomi ostida tilga oladi. Avliyo Chalabiyning bu yondashuvi u tomonidan keltirilgan yana bir qator ma'lumotlar orqali o'z tasdig'iga ega. Jumladan, Chelebiyning 10 jildlik sayohatnomasining ilk kitobida O'rta Osiyoga tegishli bir qator ma'lumotlar keltirilgan bo'lib [5], quyidagi qaydlar O'zbek atamasining mohiyatini ochib beradi: "Sulton Ahmadxon sultonlik jome'sining vasflari ... Bu hovlining uchta darvozasidan ham tashqaridagi hovliga marmar zinapoya bilan tushiladi. Hovlining derazalaridan tashqarida uch tomonda yon dahlizlar bor. Ikki tomonida nozik tirkamalar ustida devorlar bor. Jome'ning jamoati gavjum, ushbu yon dahlizlarda ham ibodat qilinadi. Bu yerlar kecha va kunduz Hind va O'zbek fuqarolari bilan to'la bo'ladi" [3].

Ushbu ma'lumotlardan anglashilicha, Istanbul shahrida Usmoniylar hukmdori Sulton Ahmadxon masjidi ancha katta imorat bo'lib, u bir necha xona (zallar)dan iborat bo'lgan. Ushbu masjidda ko'proq mahalliy aholi vakillari ibodat qilishlari bilan birga, Hindiston va O'zbek o'lkasidan kelgan musulmonlar ham o'z ibodatlarini amalga oshirganlar. Har holda muallif "O'zbek fuqarolari" iborasi ostida Ashtarxoniylar sulolasiga qarashli yerlarni, shu jumladan,

Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga qo‘shni hududlar aholisini nazarda tutgan. Ayniqsa, Ashtarxoniylarga qarashli markaziy shaharlardan bo‘lmish Buxoro, Toshkent, Balx shaharlari yoki ushbu shaharlar qarashli bo‘lgan viloyatlardan Usmoniylar saltanatiga kelib, vaqtinchalik Istanbulda yashagan kishilar ancha ko‘pchilikni tashkil etgan. Ularning bir qismi Usmoniylar poytaxtidagi “O‘zbek tekke”lari, ya’ni karvonsaroy tipidagi yashash joylarida istiqomat qilgan bo‘lsalar, ayrimlari Istanbul shahridagi yirik jome’ masjidlarda qo‘nim topganlar. Buni yuqorida keltirilgan “Bu yerlar kecha va kunduz Hind va O‘zbek fuqarolari bilan to‘la bo‘ladi” mazmunidagi ma’lumotlar ko‘rsatib turibdi.

Shuningdek, Evliya Chelebiy Istanbuldagi buxorolik diniy ulamolar bilan bog‘liq quyidagicha ma’lumot keltirib o‘tgan bo‘lib, ushbu ma’lumotlar O‘rta Osiyodan Usmoniylar saltanatiga borgan aholi vakillarining katta bir qismini o‘zbeklar yoki o‘zbek sulolalari fuqarosi bo‘lgan kishilar tashkil etgani anglashiladi: “Shayx Ahmad Buxoriy: Un-qapani yaqinidagi uyi yonida uning uchun III Murod qurdirgan maqbara ichida yotibdi. Bo‘ydoq va bola-chaqasiz, foni mashrab, tasavvuf ahli aziz bir kishi edi. Shayx Ahmad Sodik: Buxoro viloyatidan Toshkent tuprog‘idan edi. Uch marta Istanbuldan va uch marta Balxdan yayov holda hajga borgan edi. Istanbulda vafot etgach, Amir Buxoriy tekkesiga dafn qilindi. Vafoti So‘iy tarixi bo‘yicha “Dirig‘a Toshkendiy dardi ila yuz qo‘ydi tuprog‘a. Aningdek qani bir shayxi muhaqqiq olim u foiq. Vafotin ko‘r, qach aytur So‘iy-i da‘iy, aning tarix vabodan kechdi sunniy naqshbandiy Ahmad-i Sodik. Sana 994 (1586). O‘zbek kishisi bo‘lgani uchun (vafot) tarixi ham chig‘atoycha aytilgandir” [3].

Ushbu ma’lumot Usmoniylar ijtimoiy-ma’naviy hayotida o‘rta osiyolik diniy ulamolar, xususan, buxorolik shayxlarning o‘rni yuqori bo‘lganiga yaqqol bir misol bo‘la oladi. Ayniqsa, buxorolik ulamolar usmoniylar saroyida ham o‘z ta’sir doirasiga ega bo‘lib, sultonlar tomonidan ularga ma’lum miqdorda maosh, nafaqa tayinlangan, vaqflardan ma’lum miqdorda mablag‘ olib turganlar, ular vafot etganlarida hukmorlar tomonidan qabri ustiga turbe (maqbara) o‘rnatilgan. Sulton III Murod (1574-1595) tomonidan Shayx Ahmad Buxoriy maqbarasining qurdirilishi ham buning yorqin bir o‘rnagidir.

Avliyo Chalabiy keltirgan ushbu ma’lumotlardan Ashtarxoniylar davlatiga qarashli yerlar “Buxoro viloyati”, ya’ni Buxoro mamlakati, Buxoro o‘lkasi deb yuritilgani ham payqaladi. Chalabiy “Shayx Ahmad Sodik: Buxoro viloyatidan Toshkent tuprog‘idan edi” deb yozar ekan, Buxoro muayyan bir mamlakat ma’nosida kelgani, Toshkent esa unga qarashli ma’muriy-hududiy birlik – viloyat bo‘lgani anglashiladi. O‘sha kezlarda “Buxoro xonligi” deb ham tilga olingan Ashtarxoniylar davlatining janubiy hududlari bugungi Afg‘oniston shimolidagi Balx viloyatini ham qamrab olgan bo‘lib, Usmoniylar saroyi mualliflari ko‘p hollarda bu yerni “o‘zbek mamlakati”ning bir qismi sifatida ta’riflaganlar.

Qizig‘i shundaki, XVII asrda ayrim yillarda Ashtarxoniylarga, ayrim yillarda esa Qozoq xonliklari qo‘li ostida bo‘lib turgan Yassi (Turkiston) shahri Avliyo Chalabiyning qaydlarida ushbu o‘zbek xonligi qaramog‘idagi shahar sifatida eslatilgani ko‘zga tashlanadi. Buni sayyoh keltirgan quyidagi ma’lumot tasdiqlaydi: “Ma’rifat ahli maqaschilar (qaychi ustalari) sinfi: do‘kon 30, nafarot (odamlar) 100, pirlari Yovari O‘zbekiydir. Salmon-i Forsiy belini bog‘ladi. Haqiqiy mozori Tesu (Yassi) shahridagi Turk-i Turkon Ahmad Yassaviy yonidadir. Bular turli-turli qaychilarni do‘konlarda lola kabi bezatib o‘tadilar” [3].

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, Usmoniylar jamiyatida o‘zlarini “turk”, “rum turki” deb atash yetakchilik qilgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda “Turkiston” atamasini O‘rta Osiyoga nisbatan qo‘llash bilan birga, Onado‘lidagi ayrim aholi maskanlari va ularga xos xususiyatlarni bayon qilar ekan, ushbu atamani Usmoniylarning markaziy hududlari bo‘lmish Rum (Kichik Osiyo)dagi yerlarga ham qo‘llanganliklari ko‘zga tashlanadi. Muhimi shundaki, ular bu atamani ishlatar ekan o‘z ota-bobolari kelib chiqqan yurt – Turkistonga xos xususiyatlarni, ya’ni o‘zlari keyinchalik o‘zlashtirgan Onado‘li va Rum-eli aholisidikidan farqlanib turuvchi jihatlar – odmilik, soddalik va hokazolarni ifodalaganliklari kuzatiladi. Yana bir muhim tomoni shuki, Avliyo Chalabiy asarlarida ko‘p uchraydigan ibora – “Turk-i Turkon”dir. Yuqoridagi ma’lumotdan anglashilicha,

Chalabiy bu iborani turkiylarning ma'naviy-diniy ustozini hisoblangan Ahmad Yassaviyga nisbatan qo'llaydi. Shu bilan birga, bu ibora aynan qanday ma'noda qo'llanilgani chuqurroq izlanishlarni talab etishini aytib o'tish kerak. "Turk-i Turkon" iborasining lug'aviy ma'nosi "Turklar turki" bo'ladi, biroq bir qarashda turklar turki degan so'zning tub ma'nosini tushunib yetish qiyin. Bizningcha, sayyoh bu iborani "Turk-i Turkiston" ma'nosida qo'llaganga o'xshaydi. Ya'ni "Turkistonlik turklar" ma'nosida. Bu qarashimizni Avliyo Chalabiy keltirib o'tgan "Turk-i Turkon Xo'ja Ahmad Yassaviy hazratlari", "Turklarning piri Xo'ja Ahmad Yassaviy hazratlari" kabi jumlar va u bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar ham ko'rsatib turibdi: "Otamiz (bobomiz) Turkiston piri Muhammad Hanafiy o'g'li Xo'ja Ahmad Yassaviy, Hoji Bektosh-i Valiiga yordam uchun Muhammad Buxoriyga Xuroson eranlaridan 700 kishi berib, "bor endi Saltuq Muhammadim Bektoshim, seni Rumga yuborayapman". Ushbu ma'lumotdan ham Ahmad Yassaviy Turkiston, ya'ni bugungi O'rta Osiyoda yashagani va bu yerdagi turkiylarning ma'naviy ustozini hisoblangani, uning shogirdi sanalgan onado'lilik Hoji Bektosh valiiga yordam berish uchun Muhammad Buxoriy ismli bir mu'tabar kishini 700 jangchi qo'shib jo'natgani ma'lum bo'ladi [3].

Usmoniylar jamiyatida O'rta Osiyoga nisbatan keng qo'llanilgan atamalardan yana biri "Turon" bo'lib, ko'pincha bu atama "Turkiston"ga qaraganda birmuncha kengroq tushucha bo'lgani anglashiladi. Jumladan, Avliyo Chalabiy Saljuqiylar va Usmoniylarning ota-bobolari kelib chiqqan o'lka haqida so'z yuritganda, Eron va unga bilan qo'shni hudud to'g'risida yozganda "Turon" atamasini ishlatadi [3].

O'sha kezlarda O'rta Osiyo aholisi asosan turkiy va forsiy tilli xalqlardan iborat bo'lib, onado'lilik mualliflar ushbu mintaqa aholisi uchun "o'zbek" atamasini siyosiy va etnik ma'nolarda ishlatganliklari, "turkman" (ushbu etnonimni sayyoh ko'proq Yaqin Sharq va Kichik Osiyodagi turkiylarning ko'chmanchi toifasiga nisbatan ishlatgan – muallif), "qozoq", "qirg'iz", "tojik" atamalari birmuncha kam tilga olinganiga ko'zimiz tushadi.

Qisqasi, bundan besh yuz yilcha oldin o'z asarini yozgan Usmoniylar adabiy muhitiga mansub sayyoh Avliyo Chalabiy O'rta Osiyo haqida muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan. Sharqiy Anadolu, Qora dengiz va Rumelidan tortib, Levant, Falastin, Iroq, Hijoz, Misr, Sudan va Habashiston, Avstriya, Gollandiya, Shvetsiya, Daniya va Ispaniyaga qilgan sayohat tafsilotlarini o'z ichiga olgan Sayohatnoma bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan [7]. Ushbu ma'lumotlar birmuncha qisqa bo'lsa-da, o'sha davr mintaqamizning siyosiy va etnomadaniy holati bo'yicha muayyan tasavvurlarga ega bo'lishimizga yordam beradi. Sayyoh yozib qoldirgan ma'lumotlar orqali usmoniylar muhitida Onado'li va Rum-eli turklari o'zlarining kelib chiqishidan yaxshi xabardor bo'lganliklari, O'rta Osiyoga nisbatan "Turkiston" va "Turon" atamalari ishlatilgani, ulardan birinchisi birmuncha tor ma'noda, ikkinchisi esa ancha keng ma'noda qo'llanilgani, bu hududlarning ma'lum qismi – Sirdaryoning o'rta havzalaridan Amudaryoning yuqori havzalariga bo'lgan yerlar "O'zbek diyori" sifatida bilangani, aholisi bir qator turkiy elatlardan tashkil topganiga qaramay, bu hududlarga nisbatan "o'zbek" atamasi etnosiyosiy ma'noda qo'llanilgani anglashiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hammer-Purgstall J. Narrative of travels in Europe, Asta and Africa in the seventeenth Century by Evliya Effendi, London 1846-1850, New York 1968. – 216 p.
2. Юрдакал О., Кючюк. Н.Э. Записки Османского путешественника Эвлия Челеби (1611-1684) о городе Казань. Казанский вестник молодых учёных. 2024. Т. 8. № 4. - 115 с.
3. Evliyâ Çelebi. Günümüz Türkçesiyle Evliyâ Çelebi Seyahatnâmesi. – 1. Cilt. 1. Kitap. Hazirlayanlar: Seyit Ali Kahraman, Yücel Dağlı. – İstanbul, 2006. – S. 70.
4. Altın K., Aydoğdu N. Evliya Çelebinin Seyahatnamesine Göre Yesevi Geleneğinin Hacı Bektaş-I Veli Tarafından Anadolu'ya Taşınması // Alevilik-Bektaşılık Araştırmaları Dergisi, 2022, 26. – S. 67-86.

5. Сухоруков А. Иранские мотивы в путевых заметках Эвлия Челеби при путешествии по Крыму. Научный вестник Крыма, № 3 (26) 2020. – 11 с.
6. Evliya Çelebi Turkish traveler and writer. Enciklopedy of Britannica. – Режим доступа: <https://www.britannica.com/biography/Evliya-Celebi>. (murojaat sanasi: 08.01.2025).
7. Husham H. Evlia Chalabi's journey from Malatya to Mosul as a source for studying the social and economic conditions in the Ottoman Empire. Journal of Education for the Humanities, 1(3), - 14 p.